

3022

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI



XARBIY DALA TERAPIYASI MODULNING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 900 000 – Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot

Ta'lim sohasi: 910 000 – Sog'liqni saqlash

Ta'lim yo'nalishlari: 60910200 – Davolash ishi

Toshkent - 2022

Modul kodl	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
Xarbiy dala terapiyasi	2022-2023	V	1.5
Modul turi	Ta'lim tili	Haftadagi dars soatlari	
majburiy	O'zbek/rus	2/2	

Modul nomi	Kreditlar	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Xarbiy dala terapiyasi				
Xarbiy dala terapiyasi	V-sem	36 (6/30)	18	54
Jami	1,5	36 (6/30)	18	54

1. O'quv modulining dolzarbligi va oliy ta'limdagi o'rni

Modul dasturi O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standarti va bakalavriat ta'lim yo'nalishi mulaka talablariga asoslangan holda tuzilgan. Ushbu dastur asosida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'qitish jarayonida qo'llagan holda, Talabani nazariy ma'lumotidan boshlang'ich amaliy ko'nikmalarni fantomlarda bajarishga o'rgatib, o'rtirilgan ko'nikmalarni zamonaviy tibbiy texnologiyalar orqali klinik amaliyot bilan uyg'unlashtirgan holda qo'llashga imkon yaratadi.

“Harbiy dala terapiyasi” modulining mazmuni, predmeti va metodi, mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash faoliyatini tashkil qilishning tibbiy va tashkiliy asoslari, gematologiya mutaxassisligiga malakaviy talablar, nuqtainazaridan mantiqiy ketmaketlikda o'z aksini topgan. “Harbiy dala terapiyasi” modullari talabalarda gematologiya va transfuziologiyaning dolzarb masalalari bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimni shakllantirishga qaratilgan.

Yuqorida ko'rsatilgan mavzularni talabalar har qanday terapevtik bo'limga borishdan oldin bilib, o'zlashtirib olishlari maqsadga muvofiqdir, chunki umumiy terapiya moduli nafaqat terapiya sohasida balki terapiyaga yondosh modullar: nevrologiya, kardiologiya, gastroentrologiya va terapiya yo'nalishidagi boshqa modullarni o'qitish, o'zlashtirishda ham muhim ahamiyatga egadir. "Harbiy dala terapiyasi" moduli davolash ishi, professional ta'lim yo'nalishlarining 2 kurs 4-semestrda o'qitiladi.

Modul dasturi boshqa modullar bilan aloqasi: mikrobiologiya, normal va patologik fiziologiya, farmakologiya, odam anatomiyasi, patologik va topografik anatomiya, rentgenologiya, onkologiya.

2.O'quv modulining maqsadi va vazifalari

2.1. Modulning maqsadi - "Harbiy dala terapiyasi" moduli talabalarni nazariy, amaliy, hamda tashkiliy bilim va amaliy ko'nikmalar asosida harbiy holatlarda tibbiy yordamni tashkil etish, bemorlarga to'g'ri tashxis qo'yish, birlamchi vrachlik, hamda ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.

- XDT tasnifiga asoslangan holda birlamchi tashxis qo'yishni va kuzatiladigan asoratlarni o'rganish;
- shikast olgan yaradorlarga saralash;
- tibbiy evakuatsiya bosqichlarin to'g'ri tashkil etishni o'rgatish; – favqulotda vaziyatlar;
- halokatlar tibbiyoti xizmati;
- favqulotda vaziyatlar vaqtida terapevtik yordam ko'rsatish va usullarini o'rganish.
- talabalarni ichki a'zolari shikastlanganda va terapevtik kasalliklarda tekshiruv usullariga, tashxis qo'yish va davolashga, hamda ish qobiliyatini tiklash va sotsial reabilitatsiya qilishga o'rgatish;

2.3. Modul bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar:

3-semestr yakunida:

Talaba:

- modulning maksad va vazifalarini;
- harbiy dala terapiya taraqqiyoti tarixi;
- harbiy dala sharoitida kelib chiquvchi kasalliklar va ularning turlari;
- oshqozon - ichak tizimi kasalliklari va shikastlanishlarini davolashning zamonaviy prinsiplari;
- nurlanish kasalligi;
- nurlanish kasalligining turlari va tasnifi;
- jangovor xolatlarda shikastlanishlari va kasalliklarini davolashning zamonaviy usullari tasavvuriga ega bo'lishi;
- o'qotar jarohatlarni davolash usullarini;
- birlamchi tashxis qo'yishni va kuzatiladigan asoratlarni;
- tibbiy evakuatsiya vaqtida yaradorlarni saralash bosqichlarini to'g'ri taqsimlashni;
- yaradorlarni og'irlik darajasini baholash;
- gospitalizatsiya bosqichigacha yaradorlarni saralash;
- klinik va instrumental laborator tekshirishlarni o'tkaza olish; – birlamchi tashxisni qo'yish va asoslash;
- tibbiy evakuatsiya bosqichlari hajmini to'g'ri aniqlash;
- birlamchi tibbiy va birlamchi shifokor yordam ko'rsatishda tibbiy yordamni to'g'ri tashkillashtirish;
- qo'shimcha tekshirish usullarini va mutaxassislarni maslahatlarini to'g'ri tashkillashtirish;
- birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish varaqasini va boshqa tibbiy varaqalarni to'ldirish;
- Harbiy dala sharoitida birinchi tibbiy yordamni tashkil etish, nurlanishlarda, hayotga xavf soluvchi holatlarda, uzoq ezilish sindromi kuzatilganda birinchi yordam ko'rsata olishni, tibbiy evakuatsiyani qo'llashni bilishi va ulardan foydalana olishi;;

- bemor shikast olgan harakterini, og‘irlik darajasini, somatik statusini aniqlash;
- bemorlarni so‘rash, tekshirish va klinik tekshirish;
- birlamchi tibbiy va shifokor yordamni, asosan shoshilinch sharoitda to‘g‘ri bajarish;
- tibbiy evakuatsiya bosqichlarida bemorlarni navbatma – navbat o‘tkazish rejasini tuzish;
- dori–darmonlar bilan shoshilinch terapevtik davolash muolajalarini o‘tkazish;
- ilmiy, o‘quv adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, jaroxat olgan va kasallangan bemorlarni tekshirish, nurlanishlarni klinik bergilari bo‘yicha aniqlash, jangovor shikastlarda tibbiy yordamni tibbiy evakuatsiya bosqichlarida yordam berish, gemogramma va boshqa tekshiruvlarni o‘qish, tashxisni to‘g‘ri ifodalash, kasallik tarixini yozish kabi malakalarga (shu jumladan klinik amaliy ko‘nikmalariga) ega bo‘lishi kerak.

3. Asosiy qism

3.1.Moduldagi ma’ruza mashg‘ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil bo‘yicha umumiy ko‘rsatma va tavsiyalar:

1-mavzu. Radiatsion zararlanish. O‘tkir va surunkali nur kasalligi: patogenezi, klinik ko‘rinishlari, klinik bosqichlari, og‘irlik darajasiga xos diagnostik kriteriyalari va davolash prinsiplari.

Qisqacha mazmuni: Radiatsion jaroxatlanish organizmga yadroli portlash va radioaktiv bulut izining har xil ionlanuvchi nurlari ta’sir qilganda vujudga keladi.

Oxirgi 60 yil ichida AES lar ekspluatatsiyasi natijasida 3 ta yirik avariya bo‘lib, nurlanish manbasi boshkaruvi buzilishi natijasida vujudga kelgan va atrof muhitga ko‘p miqdorda radioaktiv moddalar chiqib, insonlar sog‘ligiga zomin bo‘lgan: 1. V 1957 yilda - Uindkeym (Angliya) atom markazida 2. 1979 yilda - Trimayl Aylendda (AQSH) 3. V 1986 yilda- Chernobil AES ida. Ionlanuvchi nurlar 1. Elektromagnit nurlanish: rentgen nurlari va gamma nurlar va tormozli nurlanish 2. Korpuskulyar nurlanish: alfa zarralar- geliy yadrosi va betta zarralar- elektronlar va

protonlar va neytronlar. Korpuskulyar nurlar: 1. Alfa zarralar musbat zaryadlangan geliy yadrolari bo'lib, 2 ta proton va 2 ta neytronlardan iborat. Ular yuqori zichlikdagi ionlanishga olib keladi. Alfa zarralarning to'qimalardan o'tish qobiliyati millimetring yuzdan bir qismiga teng 2. Beta zarralar - bu elektronlar bulib, manfiy zaryad va pozitronidan iborat bo'lib, musbat zaryadlanadi. To'qimalardan o'tish qobiliyati 2,5 mm.

O'tkir nur kasalligi (O'NK)- odam organizmiga 1 greydan ko'p ionlanuvchi nurlanish ta'sirida paydo bo'lgan kasallik bo'lib, ekspozitsiya davomiyligi bir necha sekunddan bir sutkagacha. Kasallik kechishi bosqichli xarakterda va klinikasi polimorf.

2-mavzu. O'qotar jarohatlarda ichki a'zolar kasalliklari. Harbiy dala sharoitida o'qlangan yaradorlarda ichki a'zolari kasalliklarini aniqlash va ularga xostomonlari, etiopatogenezi, klinikasi, diagnostikasi, davolash prinsiplari.

Qisqacha mazmuni: O'q tekkan jarohatlarda kirish teshigi, jarohat kanali yoki jaro hat bo'shlig'i, o'q teshib o'tganda esa - chiqish teshigi farqlanadi. Kelib chiqishiga ko'ra jarohatlar - ataylab qilingan va tasodifiy jarohatlarga taqsimlanadi. Hamma tasodifiy jarohatlar bakteriyalar bilan ifloslangan bo'ladi. Infitsirlangan jarohatlarda mahalliy yallig'lanish kuzatilib, ular infeksiyani to'qimalar orasiga, limfatik to'qimalar orasiga, limfatik va qon tomir yo'llariga tarqalishi bilan xarakterlanadi. Kovakli organlar jarohatlarda jarohat infeksiyasi tez vujudga kelib, tez tarqaladi. Jarohatni mahalliy belgilari: Og'riq, shish, giperemiya, mahalliy gipertermiya. Jarohatning asoratlari. 1. Qon oqish – agar yirik qon tomirdagi qon oqayotgan bo'lsa, xavfli. 2. Ba'zan kuchli og'riq natijasida travmatik shok bo'lishi mumkin. 3. Qolgan hollarda asosiy xavf - jarohat infeksiyalanishi natijasida yiringlashi hisoblanadi. Ba'zan qoqshol, gazli gangrena va quturish kabi xavfli kasalliklarga sabab bo'ladi.

3-mavzu. Tibbiy evakuatsiya etaplarida xayotga xavf soluvchi xolatlarda tez shoshilinch tibbiy yordam. Uzoq ezilish sindromi.

Qisqacha mazmuni: Zaharlanish – bu odam organizmiga turli zaharlarni kirish oqibatida yuzaga keladigan kasallik holati. O'tkir, surunkali, ishlab chiqarishdagi,

ovqat maxsulotlari, dorilar orqali zaharlanishlar bo'ladi. Zaharli moddaning tabiatiga qarab, ovqat maxsulotlaridan va nooziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanishlar farqlanadi. Ovqat maxsulotlaridan zaharlanishlar zaharli qo'ziqorinlar yoki baliqlardan, ovqat mahsulotlarini mikroblar bilan zararlanishi, xom mahsulotlardan bo'lishi mumkin. Nooziq ovqat maxsulotlaridan zaharlanishlar kuchli ta'sir qiluvchi zaharli moddalar, dori moddalari va maxsus ko'rsatmali ZM lar bilan yuz berishi mumkin. Uzoq vakt ezilish sindromi – shikastlanish toksikozi - o'ziga xos bo'lgan klinik holat bo'lib, yumshoq to'qimalarni tuproq, imoratlarining buzilgan qismlari bilan uzoq ezilishi (4-6 soatdan yuqori) natijasida vujudga keladi. Shikastlanish og'irligi ko'p sabablarga bog'liq: ezilgan joyga, ezilishning kengligiga, davomiyligiga va boshqa sabablarga. Klinik kechishiga ko'ra shikastlanish toksikozi M.I.Kuzin bo'yicha 3ta davrga bo'linadi: dastlabki, oraliq, kechikkan.

3.2.Moduldagi amaliy mashg'ulotlarning mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiflar.

Modul bo'yicha mashg'ulotlar 50% nazariy (ma'ruza va amaliy mashg'ulot) va 50 % amaliy qism (o'quv klinik amaliyot)dan iborat bo'lgan holda o'tkaziladi. Amaliy mashg'ulotning nazariy va amaliy qismi o'zaro bog'liq holda otkaziladi.

3.2.1. Amaliy mashg'ulotlarning mavzular ro'yxati:

1-mavzu. Harbiy sharoitda terapevtik yordam. Harbiy dala sharoiti haqida umumiy tushuncha. Harbiy sharoitda yaradorlarga terapevtik yordam ko'rsatish tartibi va bosqichlari. Terapevtik yordamga muxtoj bo'lgan bemorlarni asosiy kontingenti.Terapevtik sohadagi yaradorlarni saralashni o'ziga xos tomonlari. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari tashxislash.

2- mavzu Harbiy sharoitda terapevtik yordam. Terapevtik yordamga muxtoj bo'lgan bemorlarni asosiy kontingenti. Terapevtik sohadagi yaradorlarni saralashni o'ziga xos tomonlari.

3-mavzu. Urush va tinchlik davrida radiatsion zararlanish. Radiatsion zararlanish. Ionlovchi nurlarni asosiy turlari. Nurlanish birligi. Radiatsion

nurlanishlarni klinik klassifikatsiyasi. O'tkir nurlanish kasalligi: patogenez, klinik ko'rinishlari, klinik bosqichlari, og'irlik darajasiga xos diagnostik kriteriyalari. Davolash prinsiplari.

4-mavzu. O'tkir nurlanish kasalligi. Patogenez, klinik ko'rinishlari, klinik bosqichlari, og'irlik darajasiga xos diagnostik kriteriyalari. Davolash prinsiplari.

5-mavzu. Surunkali nurlanish kasalligi. Etiopatogenezi. Klinik ko'rinishlari, tashxislash, davolash prinsiplari. Birlamchi va ikkilamchi profilaktika choralari.

6 -mavzu. O'qotar jarohatlar. O'qotar jarohatlarda ichki a'zolar kasalliklari. O'qotar jarohatlarda ichki a'zolar kasalliklarida va profilaktikasida terapevtlarning o'mi va vazifalari.

7-mavzu. Harbiy sharoitda hayotga havf soluvchi holatlar. Yaradorlarda hayotga havfli holatlar xarakteristikasi va ularda harbiy dala sharoitida zudlik bilan ko'rsatiladigan terapevtik yordam prinsiplari (o'tkir yurak-tomir yetishmovchiligi, o'tkir buyrak yetishmovchiligi, o'tkir psixomotor qo'zg'alish). Klinik belgilari, aniqlash, zudlik bilan ko'rsatiladigan yordam. Hayotga xavfli sharoitlarda zudlik bilan ko'rsatiladigan terapevtik yordam.

8-mavzu. Urush va tinchlik davrda uzoq ezilish sindromi va zaharlanishlar. Uzoq ezilish sindromi bosqichlari, klinikasi va davolash. O'tkir zaharlanishlar. Etiopatogenezi, klinika, tashxislash, davolash prinsiplari.

9-mavzu. Harbiy sharoitda hayotga havf soluvchi holatlar. Yaradorlarda hayotga havfli holatlar xarakteristikasi va ularda harbiy dala sharoitida zudlik bilan ko'rsatiladigan terapevtik yordam prinsiplari (o'tkir buyrak yetishmovchiligi, o'tkir psixomotor qo'zg'alish). Klinik belgilari, aniqlash, zudlik bilan ko'rsatiladigan yordam.

10-mavzu. Harbiy sharoitda hayotga havf soluvchi holatlar. Yaradorlarda hayotga havfli holatlar xarakteristikasi va ularda harbiy dala sharoitida zudlik bilan ko'rsatiladigan terapevtik yordam prinsiplari (o'tkir buyrak yetishmovchiligi, o'tkir psixomotor qo'zg'alish). Klinik belgilari, aniqlash, zudlik bilan ko'rsatiladigan yordam.

11-mavzu. Urush va tinchlik davrda uzoq ezilish sindromi. Uzoq ezilish sindromi boskichlari, klinikasi va davolash.

12-mavzu. Urush va tinchlik davrda uzoq ezilish sindromi. Uzoq ezilish sindromi boskichlari, klinikasi va davolash.

13-mavzu. Urush va tinchlik davrda zaharlanishlar. O'tkir zaharlanishlar (karbon monoksidi, gidrazin va uning hosilalari, zaharli qo'ziqorinlar, dikloretn). Etiopatogenez, klinika, tashxislash, davolash prinsiplari.

14-mavzu. Ichki a'zolarining zarb to'liqlari bilan zararlanish kasalliklari. Portlovchi to'liq ta'sirida kelib chiqadigan ichki a'zolar kasalliklari.

15-mavzu. Urush davridagi ichki a'zolar kasalliklarining kelib chiqishi, kechishi va davolash xususiyatlari. Buyrak kasalliklarining xususiyatlari. Ovqat hazm qilish tizimi va moddalar almashinuvi kasalliklarining xususiyatlari. Trofik yetishmovchilik va gipovitaminoz. Ichki a'zolar kasalliklarini bosqichma-bosqich davolash sxemasi.

3.2.2. Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;
- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar:

Modul davomida talabalar harbiy dala terapiyasida davolash rejasini tuza olishi, reabilitatsiya chora tadbirlarini o'tkaza olishi, profilaktika guruxlariga ajratish,

og'ir bemorlarni saralash va shoshilinch yordam ko'rsata olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yhati:

1. Harbiy sharoitda kelib chiqadigan kasalliklar etiologiyasi, patogenezi, tashxisoti va davolash prinsiplari;
2. Harbiy sharoitda tibbiy xujjatlarni to'latish (yuritish);
3. Harbiy sharoitda terapevtik kasalliklarda shoshilinch yordam;
4. Harbiy sharoitda zarur bo'lgan umumiy qon analizi, umumiy siydik analizi va bi oximik klinik tahlillarni tahlil qila olish;
5. Radiologik, ultratovush, endoskopik, EKG, FKG, funksional tekshiruv usullarini baxolash;
6. Ularni o'tkazish metodikasini bilish;
7. Urush davrida tor mutaxassis yetishmaganda zarur bo'lgan holatlarda endolyum bal punksiya amaliyotini o'tkazish texnikasini bilish va tahlil qilish;
8. Tashqi nafas faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
9. Dori moddalariga sezuvchanlik sinamasini qo'yishni bilish; 10. o'pka rentgenog rafiyyasini tahlil qilish;
11. Burun qo'shimcha bo'shliqlari rengenografiyasini tahlil qilish;
12. Biron bir dori darmon yoki boshqa narsalarga allergiyasi bor bemorlar bilan ish lashni bilishi;
13. Posttransfuzion terapiya asoratlari shoshilinch yordam ko'rsata olishi; 14. Op ka shishida shoshilinch yordam ko'rsata olishi;
15. Anafilaktoid va pirogen reaksiyada shoshilinch yordam ko'rsata olishi; 16. har biy pasport to'ldirishni bilish;
17. Qon komponentlari va qon o'rmini bosuvchi preparatlarni bilish;
18. Urush va tinchlik davrida harbiy sharoitda gemotransfuziya amaliyotini o'tkazi shni bilish;
19. Urush va tinchlik davrida harbiy sharoitda qon guruxini aniqlashni bilish;
20. Urush va tinchlik davrida harbiy sharoitda qon rezus omilini aniqlashni bilish

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:

UK 11. Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UK 6. Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UKK 12. Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

Модул давомида ўқув (клиник) амалиётни ташкил этиш бўйича умумий кўрсатма ва тавсиялар:

Талабаларнинг “Харбий дала терапияси” модули бўйича клиник амалиёти таълим жараёнининг 50%ини ташкил қилади ва амалий машғулотлар полигонда ўтказилади

Амалий машғулотда амалий кўникмаларга ўргатиш жараёни батафсил режалаштирилади ва бир неча босқични ўз ичига олади:

1. Биринчи босқич – машғулотнинг мақсади ва вазифаларидан келиб чиқган ҳолда ўрганилаётган амалий кўникмани ўрганиш мотивацион асоси аниқланади, унинг назарий жиҳатлари муҳокама қилинади.

Амалий кўникмаларни амалга ошириш учун керакли асбоб-

анжомлар ишлаш механизми, ишлатиш коидалари билан талабар таништирилади.

Биринчи босқични амалга ошириш учун кафедрада барча асбоб анжомлар мавжуд ва ишчи ҳолатда бўлиши лозим.

2. Иккинчи босқич – амалий кўникмани намоиш қилиб бериш ва кўп марта машқ қилиш. Бу босқични амалга ошириш учун амалий кўникмаларни қадамма қадам алгоритми педагог томонидан ва видеофильмлар орқали намоиш этилади, алгоритм асосида босқичма босқич тўғри бажаришга алоҳида

1UK- umumiy kompetensiya

2UKK – umumiy kasbiy kompetensiya

e'tibor qaratiladi. Talaba amaliy ko'nikmani mustakil, biroq pedagog nazorati ostida mulyajlar, trenajyorlar, fantomlar va manekenlarda, ko'p marta mashq qilib o'rganadilar. Boshida barcha bosqichlarini alohida, keyinchalik umumlashtirgan xolda to'liq va to'g'ri bajara olgandan so'ng bemorda qo'llashga ruhsat beriladi (imitatsion trening).

Ikkinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan amaliy ko'nikmalar qadamma qadam algoritmi va videofilmi, o'quv-uslubiy qo'llanmasi, bajarish sxemasi yoki texnikasi va h.k., baholash mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Mulyajlar, fantomlar va, imitatorlar, asbob anjomlar bo'lishi lozim va kerakli shart sharoitlar (maksimal darajada ish sharoitiga yaqin modellashtirilgan) yaratilishi lozim. Bu bosqichda pedagog nazorat qiladi va kerak bo'lganda talabalar ishidagi xatoliklarni to'g'irlaydi. Bu jarayonda talaba harakatlari videotasvirga olinib o'ziga namoyish etilishi, tanqidiy muhokama qilinishi mumkin. Talaba, uning xatosi nimada ekanligini, o'qituvchiga va boshqa talabalarga tushuntirib beradi va so'ngra muolajani takrorlaydi. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar ekspert sifatida chiqishda va o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda ishtirok etadilar. Amaliy ko'nikma aftomatizm darajasigacha yetkazilishi maqsadga muvofiq.

3. Uchinchi bosqich - o'rganilgan bilim va amaliy ko'nikmani bemorda qo'llash. Bu bosqichda talaba o'zlashtirilgan bilim va amaliy ko'nikmani turli xil klinik xolatlarda (shu jumladan shoshilinch holatlarda) qo'llashga, olingan natijalarni tahlil qilishga va shu ma'lumotlar asosida harakat taktikasini belgilashga pedagog nazoratida o'rgatiladi.

Uchinchi bosqichni amalga oshirish uchun kafedra tomonidan ishlab chiqilgan o'quv, uslubiy qo'llanmalar, fotosuratlar, vaziyatli masalalar va testlar to'plami, keyslar, klinik protokollar, diagnostika va davolash standartlari, o'rgatuvchi kasallik tarihlari va ambulator kartalar va x.q. ishlatilishi lozim. Interfaollik shunda namoyon bo'ladiki, bunda boshqa talabalar nafaqat ekspert sifatida chiqishda va

o'qitilayotgan talabaning amaliy ko'nikmani to'g'ri o'zlashtirganligini baholashda balki komandada ishlashda ishtirok etadilar.

4. To'rtinchi bosqich – hulosasi. Bu bosqichda pedagog talaba tomonidan olingan bilim va egallagan ko'nikmani bemorlarda, turli xil vaziyatlarda, faoliyat jarayonida to'g'ri va to'liq qo'llay olishiga ishonch hosil qilishi kerak va shunda amaliy ko'nikma o'zlashtirildi deb hisoblanadi.

To'rtinchi bosqichni amalga oshirish uchun talaba bemor bilan mustaqil ishlashi pedagog tomonidan nazorat qilinadi, tibbiy hujjatlarni, kasallik tarixini yozib himoya qilganda baholanadi.

Mashg'ulot so'ngida o'qituvchi har bir talabaning amaliy ko'nikmani o'zlashtirganligini tasdiqlaydi. Talaba amaliy ko'nikmani o'zlashtira olmagan vaziyatlarda, mashg'ulotdan tashqari vaqtda mustaqil o'zlashtirish tavsiya etiladi va pedagogga qayta topshiradi. Talaba barcha amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirgan holda modulni o'zlashtirgan hisoblanadi.

4. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzular ro'yxati:

1. Xizmat qilayotgan armiyada terapevtik yordamni tashkil qilish asoslari.
2. Zamonaviy harbiy terapevtik kasalliklar.
3. Terapevtik yordamga muxtoj bo'lgan bemorlarning asosiy xarakteristikasi.
4. Surunkali nur kasalligi.
5. Kombinirlangan radiatsion zararlanish.
6. Jarohat olganlarda ichki a'zolar kasalliklari.
7. O'qli jarohatlarda ichki a'zolar kasalliklarining paydo bo'lishi, kechishi va diagnostikasi.
8. Jarohatlanganlarda ichki a'zolar kasalliklarini davolash va oldini olishda terapevtlarning maqsad va vazifalari.
9. Yaradorlarda ichki a'zolar kasalliklari profilaktikasida terapevtlarning o'rni va vazifalari.
10. Yaradorlarda qon kasalliklari.

11. Kuyish kasalligining terapevtik aspektlari.
12. Harbiy dala sharoitlarida bemor va yaradorlarda shoshilinch terapevtik yordam ko'rsatishning prinsiplari.
13. O'tkir zaxarlanishlar.

4.2. Tavsia etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

Harbiy dala terapiyasi moduli bo'yicha tavsia etilayotgan mustaqil ishlar modul tizimida turli xil shaklda amalga oshiriladi:

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tezislari tayyorlash;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- keys (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;
- grafik organayzerlash ishlab chiqish va to'ldirish; - krossvordlar tuzish va yechish;
- prezentatsiya va videoroliklar tayyorlash hamda mustakil ish jarayonida keng qo'llash va h.k.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiy

ko'rsatma va tavsiyalar:

Harbiy dala terapiya moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Talaba mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

- auditoriya mashg'ulotlaridan tashqari trenajyor, mulyaj va simulyatsion zallarda/markazlarda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jixatdan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish daftarlarida aks ettirish;
- bemorlarni kuratsiya qilishda davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan ishtirok etish;

- aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib kilish, bolalarni yoshi va sog'ligiga bog'lik ovqatlantirish tamoyillari xaqida suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;
- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;
- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayarlash;
- modulning bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlash va ma'ruzalar qilish;
- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish;
- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish.
- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish va h.k.

Harbiy dala terapiyasi moduli bo'yicha kurs ishi rejada ko'zda tutilmagan.

Modul bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish turlari va baholash mezonlari Harbiy dala terapiyasi moduli bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi. Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN); - sinov (YAN)

Modulga ajratilgan 1,5 kreditni talaba JN davomida yig'adi.

JORIY NAZORAT (JN)

Joriy nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Harbiy dala terapiyasi moduli bo'yicha JN og'zaki, o'rgatuvchi-nazorat testlari, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mul'ay va fantomlarda ishlash ma'lumotlarini o'rganish, amaliy ko'nikmalarni qadamma-qadam bajarish, bemorlar bilan ishlash, klinik audit yozish, uyga berilgan vazifalarni tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

Joriy nazoratda talabalar bilimi ta'lim modeliga asoslangan xolda quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi: nazariy va amaliy qism (50:50).

Joriy nazorat uchun ajratilgan 1,5 kredit semestrlar bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

5-semestr –1,5 kredit Joriy nazorat –1,5 kredit;

Sinov -0 (o'tilishi majburiy)

Talaba 5 semestrda belgilangan kreditlarni to'plagandan keyin semestr yakunida sinovli vazifani topshiradi va o'tish (saralash) balidan o'tsagina keyingi semestrga o'tadi. Talaba belgilangan kreditlarni to'plagandan keyin semestr yakunida sinovga kiritiladi.

Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun sinovgacha bo'lgan muddat beriladi.

SINOV

Shunda ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan talaba sinovga kiritiladi. sinovda talabaning bilim, ko'nikma va malakalari modulning umumiy mazmuni doirasida baholanadi. Sinov modul bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tugaganidan so'ng kafedrada yozma, og'zaki, test yoki OSCE shaklida o'tkaziladi. sinovda 55 saralash ballini yig'a olmagan talaba sinovdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi, JNda to'liq kreditni yig'gan bo'lsa ham).

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida sinovni o'tkazish jarayoni

davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda sinov natijalari bekor qilinadi va qayta o'tkaziladi.

Kasalligi sababli sinovdan o'tolmagan talabalarga fakultet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida sinovdan o'tolmagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. Shu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakultet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Talaba nazorat natijalaridan norozi bo'lsa, modul bo'yicha nazorat turi natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab bir kun mobaynida fakultet dekaniga ariza bilan murojaat etishi mumkin. Bunday holda fakultet dekanining taqdimnomasiga ko'ra rektor buyrug'i bilan 3 (uch) a'zodan kam bo'lmagan tarkibda apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi talabalarining arizalarini ko'rib chiqib, shu kunning o'zida xulosasini bildiradi.

Baholashning o'rnatilgan talablar asosida belgilangan muddatlarda o'tkazilishi hamda rasmiylashtirilishi fakultet dekani, kafedra mudiri, o'quv bo'limi hamda ichki nazorat va monitoring bo'limi tomonidan nazorat qilinadi.

5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

5.1. Asosiy adabiyotlar:

1. Babadjanov A. S., Babadjanova Sh. A., Kadomtseva L.V., Harbiy- dala terapiyasi, Darslik. Toshkent. 2020 u.
2. Babadjanov A.S., Babadjanova Sh.A., Kadamseva L.V., Voyenno-polevaya terapiya. Uchebnik. Tashkent. 2020 g.

5.2. Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 485 b.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
3. Комплект материалов по информированию о рисках COVID-19 для лечебно-профилактических учреждений, ВОЗ. Обновлено 10 марта 2020 г.
4. Практические аспекты организации ведения случаев COVID-19 в лечебных учреждениях и на дому. Временные рекомендации ВОЗ от 19 марта 2020 г.
5. Профилактика инфекций и инфекционный контроль при оказании медицинской помощи пациентам с подозрением на новую коронавирусную инфекцию (nCoV), Временные рекомендации ВОЗ от 25 января 2020 г.
6. Профилактика инфекций и инфекционный контроль при оказании медицинской помощи пациентам с подозрением на новую коронавирусную инфекцию (nCoV), Временные рекомендации ВОЗ от июля 2020 г.
7. Гембицкий Е.В., Комаров Ф.И., Военно-полевая терапия. Учебник. Москва. Медицина.1983 г.
8. Михайлов В.Г. Ҳарбий-дала терапиясидан қўлланма. Ташкент. Изд."Абу Али Ибн Сино". 1994 й.
9. Овчинников Ю.В., Военно-полевая терапия, Учебник. Санкт-Петербург. ЛБИ-СПб. 2016 г.

5.3. Internet saytlari:

1. www.med-info.ru
2. www.rosmedlib.ru 3. www.pubmed.com 4. www.ziyounet.uz
3. www.medlinks.ru 6. www.MedPortal.ru
4. http://medvuz.info/load/laboratornaja_diagnostika8. 6years.net/?do=static
5. medwedi.ru/knigi/laboratornaya 10. www.booksmed.com
6. shop.top-kniga.ru/books/catalogue

7. www.spruce.ru/diagnostics/urine/03.html - 16k 13.
ru.wikipedia.org/wiki/Анализ_мочи - 51k
8. www.analisi.ru/urine.html 15. lechebnik.info/med-4/90.htm
9. www.venerologia.ru/venerologia/bezmazka.htm 17.
www.gabrich.com/urine_analysis.html

HARBIY DALA TERAPIYASI MODULIDAN SILLABUS

Harbiy dala terapiyasi modulidan SILLABUS			
Modulning to'liq nomi	Harbiy dala terapiyasi		
Modul kodi: 3.31	Kredit hajmi: umumiy – 1,5kredit Shundan: 4-semestr – 1,5 kredit Joriy nazorat – 1,5 kredit; Sinov - 0 (o'tilishi majburiy)	Modul o'tilish davri: 4 semestr	ECTS value:
Ta'lim yo'nalishi	60910200– Davolash ishi;	2- bosqich bakalavrlari	
Modulning davomiyligi	6 kun		
O'quv soatlari xajmi	Jami soat: \	54	
	Shuningdek:		
	ma'ruza	6	
	amaliy mashg'ulot	30	
	klirik o'quv amaliyoti		
	mustaqil ta'lim	18	
O'quv modulining statusi	Klinik modullar bloki		
OTM nomi, manzili	Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Bog'ishamol ko'chasi 223 uy.		

Kafedra noma	Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ	
Mazkur kursning o'qituvchilari haqida ma'lumot	Ma'ruzachilarning F.I.Sh. J.O. Ortiqboyev Amaliy mashg'ulot o'tkazuvchilarning F.I.Sh J.O. Ortiqboyev	E-mail: fakichkikas@tashpmi.uz
Mashg'ulot vaqti va joyi	DM Respublika ixtisoslashtirilgan terapiya va tibbiy reabilitatsiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi	
Modulning mazmuni	"Harbiy dala terapiyasi" modulining mazmuni, predmeti va metodi, mohiyati, uning maqsadi va vazifalari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni Saqlash faoliyatini tashkil qilishning tibbiy va tashkiliy asoslari, gematologiya mutaxassisligiga malakaviy talablar, nuqtai-nazaridan mantiqiy ketma-ketlikda o'z aksini topgan. "Harbiy dala terapiyasi" modullari talabalarda gematologiya va transfuziologiyaning dolzarb masalalari bo'yicha nazariy hamda amaliy bilimni shakllantirishga qaratilgan.	
Prerekvizitlar	Klinik laborator diagnostika, gematologiya fanlari nazariy qismi hisoblanadi.	
Postrekvizitlar	Ambulator-poliklinik pediatriya moduli oxirgi kursda o'tilib, keyinchalik magistratura va klinik ordinaturaning barcha modullari uchun nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi	
Modulning maqsadi	"Harbiy dala terapiyasi" moduli talabalarni nazariy, amaliy, hamda tashkiliy bilim va amaliy ko'nikmalar asosida harbiy holatlarda tibbiy yordamni tashkil etish, bemorlarga to'g'ri tashxis qo'yish, birlamchi vrachlik, hamda ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatish	

	bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirishdan iborat.
Modulning vazifalari	<ul style="list-style-type: none"> – XDT tasnifiga asoslangan holda birlamchi tashxis qo'yishni va kuzatiladigan asoratlarni o'rganish; – shikast olgan yaradorlarga saralash; – tibbiy evakuatsiya bosqichlarin to'g'ri tashkil etishni o'rgatish; – favqulotda vaziyatlar; – halokatlar tibbiyoti xizmati; – favqulotda vaziyatlar vaqtida terapevtik yordam ko'rsatish va usullarini o'rganish. – talabalarni ichki a'zolari shikastlanganda va terapevtik kasalliklarda tekshiruv usullariga, tashxis qo'yish va davolashga, hamda ish qobiliyatini tiklash va sotsial reabilitatsiya qilishga o'rgatish;
Modul bo'yicha talabalar bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar	<p>4-semestr yakunida:</p> <p>Talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> – modulning maksad va vazifalarini; – harbiy dala terapiya taraqqiyoti tarixi; – harbiy dala sharoitida kelib chiquvchi kasalliklar va ularning turlari; – oshqozon - ichak tizimi kasalliklari va shikastlanishlarini davolashning zamonaviy prinsiplari; – nurlanish kasalligi; – nurlanish kasalligining turlari va tasnifi; – jangovor xolatlarda shikastlanishlari va kasalliklarini davolashning zamonaviy usullari tasavvuriga ega bo'lishi;

	<ul style="list-style-type: none"> – o‘qotar jarohatlarni davolash usullarini; – birlamchi tashxis qo‘yishni va kuzatiladigan asoratlarni; – tibbiy evakuatsiya vaqtida yaradorlarni saralash bosqichlarini to‘g‘ri taqsimlashni; – yaradorlarni og‘irlik darajasini baholash; – gospitalizatsiya bosqichigacha yaradorlarni saralash; – klinik va instrumental laborator tekshirishlarni o‘tkaza olish; – birlamchi tashxisni qo‘yish va asoslash; – tibbiy evakuatsiya bosqichlari hajmini to‘g‘ri aniqlash; – birlamchi tibbiy va birlamchi shifokor yordam ko‘rsatishda tibbiy yordamni to‘g‘ri tashkillashtirish; – qo‘shimcha tekshirish usullarin va mutaxasislarni maslahatlarini to‘g‘ri tashkillashtirish; – birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish varaqasini va boshqa tibbiy varaqalarni to‘ldirish; – Harbiy dala sharoitida birinchi tibbiy yordamni tashkil etish, nurlanishlarda, hayotga xavf soluvchi holatlarda, uzoq ezilish sindromi kuzatilganda birinchi yordam ko‘rsata olishni, tibbiy evakuatsiyani qo‘llashni bilishi va ulardan foydalana olishi; – bemor shikast olgan harakterini, og‘irlik darajasini, somatic statusini aniqlash; – bemorlarni so‘rash, tekshirish va klinik tekshirish; – birlamchi tibbiy va shifokor yordamni, asosan shoshilinch sharoitda to‘g‘ri bajarish; – tibbiy evakuatsiya bosqichlarida bemorlarni navbatma – navbat o‘tkazish rejasini tuzish; – dori–
--	--

	darmonlar bilan shoshilinch terapevtik davolashmuolajalarini o'tkazish; – ilmiy, o'quv adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, jaroxat olgan va kasallangan bemorlarni tekshirish, nurlanishlarni klinik bergilari bo'yicha aniqlash, jangovor shikastlarda tibbiy yordamni tibbiy evakuatsiya bosqichlarida yordam berish, gemogramma va boshqa tekshiruvlarni o'qish, tashxisni to'g'ri ifodalash, kasallik tarixini yozish kabi malakalarga (shu jumladan klinik amaliy ko'nikmalariga) ega bo'lishi kerak.
Ta'lim berish usullari	Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar
Ta'minot	videofilmlar, multimediyali va o'qituvchi kompyuter dasturlardan, o'qitish metodikasidagi yangi texnologiyalardan, mavzular bo'yicha nazariy bilimlarni so'rashdan foydalaniladi; bakalavrlarning mustaqil ishi, individual va guruhli prezentatsiyalar, uyga berilgan vazifalarni tayyorlash, referatlar yozish, testlar, vaziyatli masalalar va boshqalar.

O'qitish natijalari: Modulni yakunlaganda talaba biladi: 4-estestr yakunida:

Talaba:

1. modulning maksad va vazifalarini;
2. harbiy dala terapiya taraqqiyoti tarixi;
3. harbiy dala sharoitida kelib chiquvchi kasalliklar va ularning turlari;
4. oshqozon - ichak tizimi kasalliklari va shikastlanishlarini davolashning zamonaviy prinsiplari;
5. nurlanish kasalligi;
6. nurlanish kasalligining turlari va tasnifi;

7. jangovor xolatlarda shikastlanishlari va kasalliklarini davolashning zamonaviy usullari;
8. o'qotar jarohatlarni davolash usullarini;
9. birlamchi tashxis qo'yishni va kuzatiladigan asoratlarni;
10. tibbiy evakuatsiya vaqtida yaradorlarni saralash bosqichlarini to'g'ri taqsimlashni;
11. yaradorlarni og'irlik darajasini baholash;
12. gospitalizatsiya bosqichigacha yaradorlarni saralash;
13. klinik va instrumental laborator tekshirishlarni o'tkaza olish;
14. birlamchi tashxisni qo'yish va asoslash;
15. tibbiy evakuatsiya bosqichlari hajmini to'g'ri aniqlash;
16. birlamchi tibbiy va birlamchi shifokor yordam ko'rsatishda tibbiy yordamni to'g'ri tashkillashtirish;
17. qo'shimcha tekshirish usullarini va mutaxassislarni maslahatlarini to'g'ri tashkillashtirish;
18. birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish varaqasini va boshqa tibbiy varaqalarni to'ldirish;
19. Harbiy dala sharoitida birinchi tibbiy yordamni tashkil etish, nurlanishlarda, hayotga xavf soluvchi holatlarda, uzoq ezilish sindromi kuzatilganda birinchi yordam ko'rsata olishni, tibbiy evakuatsiyani qo'llashni.

Modulni yakunlaganda talaba bajara oladi:

1. Bemor shikast olgan harakterini, og'irlik darajasini, somatik statusini aniqlash;
2. Bemorlarni so'rash, tekshirish va klinik tekshirish;
3. Birlamchi tibbiy va shifokor yordamni, asosan shoshilinch sharoitda to'g'ri bajarish;
4. Tibbiy evakuatsiya bosqichlarida bemorlarni navbatma – navbat o'tkazish rejasini tuzish;
5. dori–darmonlar bilan shoshilinch terapevtik davolash muolajalarini o'tkazish;

6. ilmiy, o'quv adabiyotlar ustida mustaqil ishlash, jaroxat olgan va kasallangan bemorlarni tekshirish, nurlanishlarni klinik bergilari bo'yicha aniqlash, jangovor shikastlarda tibbiy yordamni tibbiy evakuatsiya bosqichlarida yordam berish, gemogramma va boshqa tekshiruvlarni o'qish, tashxisni to'g'ri ifodalash, kasallik tarixini yozish.

Toshkent pediatriya instituti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan.

Fan/Modulning o'quv dasturi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

31.08.2022

314

-sonli buyrug'i (buyruqning 3 -ilovasi) bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i



N.X. Isahanova

Fan/Modul uchun ma'sullar:

Alyavi B.A. - Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ kafedrası mudiri va prof., DSc.

Yunusov Z.Z. - Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ kafedrası professori, tibbiyot fanlari doktori.

J.O. Ortiqboyev - Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ kafedrası PhD, assistenti.

Yo.E. Rasulev - Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ kafedrası assistenti.

J.A. Holmuhamedov - Ichki kasalliklar, nefrologiya va gemodializ kafedrası assistenti.

Taqrizchilar:

Ichki taqrizchi:

Kadomseva L.V. - ToshPTI, UASH - terapiya, klinik farmakologiya kafedrası dotsenti, tibbiyot fanlari doktori.

Tashqi taqrizchi:

M.A. Sabirov - Respublika ixtisoslashtirilgan nefrologiya va buyrak transplantatsiyasi ilmiy-amaliy tibbiy markazi direktori o'rinbosari t.f.d., prof.